

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“Tasdiqlayman”
O'ZDK rektori



« » 2019 yil

“Kelishildi”
O'zbekiston Respublikasi
madaniyat vazirligi



« » 2019 yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH
MEZONLARI**

“SOLFEDJIO”
fanidan

Vokal san'ati (turlari bo'yicha)
Kasb ta'limi: turlari bo'yicha
Cholg'u ijrochiligi: an'anaviy cholg'u ijrochiligi
Texnogen san'at: musiqiy ovoz rejissyorligi
ta'lim yo'nalishlari uchun

Toshkent 2019

Dastur O'zbekiston davlat konservatoriyasi o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2019 yil 11-iyundagi -sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

O'DK "Musiqqa nazariyasi"
kafedrasi mudiri, s.f.n.
T.Davidova

O'DK "Musiqqa nazariyasi" kafedrasi
katta o'qituvchisi
S.Maxmudova

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy
ta'lim" kafedrasining dotsenti, ped.f.n.
A.Trigulova

O'DK "Musiqqa nazariyasi" kafedrasi
katta o'qituvchisi
N.Axundjanova

1. Kirish

Bakalavriat bosqichiga kiruvchi abituriyentlar bilimini baholash uchun tuzilgan mazkur dastur – bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining Vokal san'ati: turlari bo'yicha, Kasb ta'limi: turlari bo'yicha, Cholg'u ijrochiligi: an'anaviy cholg'u ijrochiligi, Texnogen san'at: musiqiy ovoz rejissyorligi ixtisosliklari bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtixonlar tarkibiga kiradi.

2.Fanning maqsadi va vazifalari

“Solfedjio” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchliligi xonanda va dirijyorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Solfedjio fani bo'yicha talabalar o'rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi lozim.

3. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent “Solfedjio” fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda, yozma ish (diktant)ni xatosiz bajarganda, musiqiy-nazariy qonuniyatlarni tahlil qilish, musiqiy-nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabaning musiqa nazariyasini bilish qobiliyati yorqin namoyon bo'lishi kerak.

4. Kasbiy (ijodiy) imtixonida abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

VOKAL SAN'ATI: TURLARI BO'YICHA
KASB TA'LIMI: TURLARI BO'YICHA
CHOLG'U IJROCHILIGI: AN'ANAVIY CHOLG'ULAR,
TEXNOGEN SAN'AT: MUSIQIY OVOZ REJISSYORLIGI

YOZMA:

8-10 taktdan iborat bo'lgan 2/4, 3/4, 4/4 o'lchamidagi davriya shaklida xromatizimli unsurlar bilan murakkab bo'lgan diatonik bir ovoqli diktant.

Umumiy ball berilgan taktlar miqdoridan kelib chiqqan holda bo'linadi.

1. Tushib qoldirilgan har bir al'teratsiya belgisi - 0,5 ball;
2. Noto'g'ri qo'yilgan shtil uchun - 0,5 ball;
3. Har bir noto'g'ri qo'yilgan tovush uchun – 1 ball.

Diktant yozish uchun ajratilgan vaqt - 45 daqiqa.

“Solfedjio” bo’yicha abituriyentlarning to’plash mumkin bo’lgan maksimal ball- **33 ball**.

5. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o’tkazish tartibi

Vokal san’ati: turlari bo’yicha, Kasb ta’limi: turlari bo’yicha, Cholg’u ijrochiligi: an’anaviy cholg’ular, Texnogen san’at: musiqiy ovoz rejissyorligi ta’lim yo’nalishlariga xujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda Solfedjio fanidan diktant yozishadi. Diktant yozish ushuni 45 daqiqa ajratiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihonlar maxsus qurollar, xususan fortepiano bilan jihozlangan xonalarda o’tkaziladi.

Solfedjio fanidagi vazifalar Davlat standartiga rioya qilgan xolda bajariladi.

6. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon tanijalari bo’yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayotiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o’zining ballari xaqida bo’lsa qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar xaqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.